

**Madaniy meros agentligida 2025-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida**  
**UMUMIY HISOBOT**

**I. Agentlikning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to'g'risida umumiy axborot**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son hamda 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5177-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Madaniy meros agentligi direktorining 2025 yil 16-oktabrdagi 222-P-son buyrug'i bilan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlar tasdiqlangan.

Hisobot davrida Agentlikda Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirish maqsadida 15 ta ichki idoraviy hujjatlari qonunchilikka muvofiqlashtirish maqsadida qaytadan tasdiqlandi.

Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlar o'tkazish, shuningdek xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirib kelinmoqda.

Xususan 2025-yil davomida ommaviy axborot vositalarida **12 ta** targ'ibot tadbirlari, xodimlar ishtirokida **35 ta** davra suhbat, **25 ta** seminar, **9 ta** konfrensiya o'tkazilib, unda **380 nafardan** ortiq tinglovchilar ishtirok etdi.

Bundan tashqari xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida **Huquqni muhofaza qilish akademiyasining [proacademy.uz](http://proacademy.uz)** platformasida **bilim va ko'nikmalari** oshirildi.

Xususan, markaziy apparatda **75 nafar**, Toshkent shahar hududiy boshqarmada **10 nafar**, Toshkent viloyatida **8 nafar**, Andijon viloyatida **7 nafar**, Farg'ona viloyatida **7 nafar**, Namangan viloyatida **7 nafar**, Sirdaryo viloyatida **7 nafar**, Jizzax viloyatida **7 nafar**, Samarqand viloyatida **8 nafar**, Qashqadaryo viloyatida **10 nafar**, Surxondaryo viloyatida **9 nafar**, Navoiy viloyatida **10 nafar**, Buxoro viloyatida **12 nafar**, Xorazm viloyatida **10 nafar**, Qoraqalpog'iston Respublikasida **12 nafar** xodimlarning bilim va malakalari oshirildi.

**II. Siyosat va tartib-taomillar**

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish va amalga oshirilayotgan ishlarni aniq mezonlar bo'yicha yo'lga qo'yish maqsadida mazkur soha bo'yicha yo'nalishlarni belgilab beruvchi asosiy ichki idoraviy hujjatlari qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirish maqsadida Madaniy meros agentligi direktorining 2025-yil 16-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 222-P-son buyrug'i qabul

qilinib, mazkur buyruq bilan quyidagi ichki idoraviy hujjatlar tasdiqlandi:

- a) Madaniy meros agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish **siyosati**;
- b) Madaniy meros agentligi va uning tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash **uslubiyoti**;
- d) Madaniy meros agentligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida **nizom**;
- e) Madaniy meros agentligiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish **reglamenti**;
- f) Madaniy meros agentligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha **yo‘riqnoma**;
- g) Madaniy meros agentligi tizimida kontragentlarni tekshirishga oid **yo‘riqnoma**;
- h) Madaniy meros agentligiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha **yo‘riqnoma**;
- i) Madaniy meros agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish **uslubiyoti**;
- j) Madaniy meros agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha **nizom**;
- k) Madaniy meros agentligi tizimida korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish bo‘yicha **reglament**;
- l) Madaniy meros agentligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi faoliyati to‘g‘risidagi **nizom**;
- m) Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi **nizom**;
- n) Madaniy meros agentligi xodimlarining odob-axloq **qoidalari**;
- o) Madaniy meros agentligining Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi **nizom**;
- p) Madaniy meros agentligining Odob-axloq komissiyasi **tarkibi**.

### III. Xavf-xatarlarni baholash

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-240-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida agentlikning barcha funksiyalari “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalar va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti”ga (2022-yil 31-avgust, ro‘yxat raqami: 3383) asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining “E-anticor.uz” platformasi orqali baholandi.

Baholash natijalariga ko‘ra Agentlikning 13 ta funksiyasida korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori va o‘rta darajada ekanligi aniqlandi. Aniqlangan korrupsiyaviy

xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida Chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanib, ushbu dasturda belgilangan vazifalar o'z vaqtida ijrosi ta'minlandi. Bundan tashqari korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori va o'rta lavozimlarda ishlayotgan 13 nafar xodimlar maxsus o'qitishdan o'tkazildi.

#### **IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib- taomillar**

##### **Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish**

Hisobot davrida Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizomga asosan agentlik markaziy apparatining 69 nafar boshqaruv xodimi yillik, markaziy apparatga ishga kirish jarayonida 11 nafar xodim, Agentlik nomenklaturasida turadigan tizim tashkilotlariga ishga kirish jarayonida 18 nafar xodimlar manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirgan. Xodimlar tomonidan to'ldirilgan deklaratsiyalar tahlil qilinganda manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmadi.

Bundan tashqari hududiy boshqarma xodimlari tomonidan ham manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni to'ldirilishi ta'minlandi.

##### **Korrupsiyaga qarshi qoidalarni agentlik sharnomalariga kiritish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabrdagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-son Farmonda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan davlat xaridlari bilan bog'liq tuziladigan shartnomalarda majburiy ravishda korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar belgilanishi ko'rsatilgan. Shunga muvofiq barcha xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilgan.

Bundan tashqari xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga ham korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar kiritilib, mehnat shartnomasi imzolanayotganda ularga imzo qo'ydirgan holda tanishtirilmoqda.

Agentlik bilan shartnomaviy munosabatga kirishgan kontragent tomonidan xo'jalik shartnomalarida belgilangan korrupsiyaga qarshi shartlarni buzish holatlari mavjud emas.

##### **Kontragentlarni tekshirish**

Kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomaga (2025-yil 16-oktabrdagi 222-P-son buyruq 6-ilovasiga) asosan agentlik bilan shartnomaviy- huquqiy munosabatga kirishgan kontragentlar tekshirib borilmoqda. Xususan, hisobot davrida jami 146 ta xo'jalik shartnomasi imzolangan bo'lib, shundan yo'riqnoma talablariga asosan electron do'kon va auksiondan tashqari barcha tanlov jarayonlarida belgilangan tartibda kontragentlar tekshirilib kelinmoqda.

##### **Ishga nomzodlarni tekshirish**

Madaniy meros agentligiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha **yo'riqnoma** (2025-yil 16-oktabrdagi 222-P-son buyruq 7-ilovasi); ishlab chiqilgan bo'lib, agentlik tizimiga ishga qabul qilinuvchi nomzodlar mazkur yo'riqnoma talablariga asosan tekshirilmoqda.

Xususan, 2025-yil davomida 12 ta vacant lavozim uchun o'tkazilgan tanlov jarayonlariga 67 nafar nomzod yakuniy suhbat bosqichigacha yetib kelib, ularning 12 nafar nomzodga ijobiy xulosa berilgan.

## V. Ta'lim va kommunikatsiya

Agentlik va tizim tashkiloti xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko'nikmalari doimiy ravishda oshirib borilmoqda. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tomonidan 2025-yilga mo'ljallangan o'quv dasturi hamda "Agentlikning hududiy va soha (tarmoqlar kesimida 2025-yil uchun aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir CHORA-TADBIRLAR REJASI" ishlab chiqilib, unga muvofiq targ'ibot tadbirlari amalga oshirib kelinmoqda. Bundan tashqari xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida turli xil targ'ibot materiallari ishlab chiqilib, xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida davra suhbatlari tashkil qilindi.

2025-yil davomida **agentlik markaziy apparati** va hududiy boshqarmalarining xodimlari **Huquqni muhofaza qilish akademiyasining [edu.proacademy.uz](http://edu.proacademy.uz)** plarformasida "**Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalalari**" mavzusida **24 va 36 soatlik** o'quv kurslarida ishtirok etdi.

Xususan, markaziy apparatda **75 nafar**, Toshkent shahar hududiy boshqarmada **10 nafar**, Toshkent viloyatida **8 nafar**, Andijon viloyatida **7 nafar**, Farg'ona viloyatida **7 nafar**, Namangan viloyatida **7 nafar**, Sirdaryo viloyatida **7 nafar**, Jizzax viloyatida **7 nafar**, Samarqand viloyatida **8 nafar**, Qashqadaryo viloyatida **10 nafar**, Surxondaryo viloyatida **9 nafar**, Navoiy viloyatida **10 nafar**, Buxoro viloyatida **12 nafar**, Xorazm viloyatida **10 nafar**, Qoraqalpog'iston Respublikasida **12 nafar** xodimlarning bilim va malakalari oshirildi.

## VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

Madaniy meros agentligiga 2025-yil davomida (I-IV chorak) korrupsiya faktlariga doir jami **8 ta** murojaat kelib tushgan. Ushbu murojaatlarning **2 tasi** Prezident ishonch telefoni orqali, **1 tasi** Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, **2 tasi** pochta orqali, **1 ta** murojaat [murojaat.gov.uz](http://murojaat.gov.uz) portali orqali kelib tushgan bo'lsa, **2 ta** murojaat Agentlikning ishonch telefoni orqali kelib tushgan. Agentlikning [@madaniymerosmurojaat\\_bot](https://t.me/madaniymerosmurojaat_bot) orqali hech qanday murojaat kelib tushmadi.

Mazkur murojaatlarning **2 tasi Surxondaryo** viloyati, **2 tasi Samarqand** viloyati, **2 tasi Namangan** viloyati va **2 tasi Toshkent** shahridan kelib tushgan.

Mazkur murojaatlar belgilangan tartibda ko'rib chiqildi va **7 ta** murojaat yuzasidan tushuntirish berildi, **1 ta** murojaat joyiga chiqqan holda o'rganilib, o'rganish natijasi yuzasidan mas'ul shaxslarga tegishli intizomiy jazo choralari qo'llanildi.

## VII. Monitoring va nazorat

Tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlarga rioya qilinishi yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish **uslubiyotiga** asosan

doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi talablarning bajarilishi monitoring qilib borilmoqda va ularning ijrosi bo'yicha nazorat tadbirlari tashkil qilib kelinmoqda. Xususan, joriy yil davomida agentlik markaziy apparati xodimlarining mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilganligi monitoring qilindi. Monitoring natijasida barcha mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilganligi va xodimlar ushbu shartlar bilan imzo qo'ydirgan holda tanishtirilayotganligi aniqlandi. Bundan tashqari **7 ta** tizim tashkilotlarida monitoring-nazorat va o'rganish tadbirlari o'tkazildi. Tadbirlar davomida xodimlarning odoq-axloq qoidalariga, korrupsiyaga qarshi qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlarga rioya qilinishi hamda xodimlar tomonidan ushbu hujjatlarda belgilangan tartib-tamoyillardan xabardorligi o'rganildi.

Monitoring va nazorat tadbirlarida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, tizim tashkilotlarida **8 ta so'rovnoma** o'tkazildi.

### **VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari**

Ichki audit va moliyaviy nazorat bo'limi tomonidan 2025 yil davomida jami 10 ta ob'ektlarda ichki audit tadbirlarini o'tkazish rejalashtirilgan.

Ish rejada belgilangan ob'ektlarning barchasida ichki audit tadbirlari o'tkazilib aniqlangan kamchilik va xatolar yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berilgan.

Shuningdek tekshirish natijalari yuzasidan 3 ta muzey rahbarlari va 2 ta boshqarma boshliqlariga intizomiy va 1 ta qo'riqxonada xodimini ishdan olish choralari ko'rilgan.

Bundan tashqari, bo'lim tomonidan 2 ta rejadan tashqari agentlik tizim tashkilotlarida ichki audit tekshiruvlari o'tkazilib, bunda "Moziydan sado" nashriyotida **957,5 mln.** so'mlik pul mablag'lari talon-taroj qilinganligi aniqlangan va aniqlangan holat yuzasidan daloltnoma rasmiylashtirilib tegishli tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.

Xuddi shunday agentlik tizim tashkiloti "Madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutida" ham ichki audit tekshiruvlari o'tkazilib jami **26 952 130,1 ming** so'mlik moliyaviy xato kamchiliklar aniqlangan va tegishli chora ko'rish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.

O'tkazilgan tekshirishlar davomida bir nechta rasmiylashtirishga oid kamchiliklar aniqlangan bo'lib ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ko'rsatma va takliflar berilgan.

### **IX. Sohani raqamlashtirish yo'nalishida**

Madaniy meros agentligi tomonidan madaniy meros obyektlarini asrash, ularni keng jamoatchilikka tanitish hamda boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish maqsadida keng ko'lamlil raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlari amalga oshirildi. Shu doirada "Ichan Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasida zamonaviy sun'iy intellektga asoslangan **video kuzatuv tizimlari** hamda **maxsus turniket qurilmalari** o'rnatildi. Mazkur tizimlar muzey hududida xavfsizlikni ta'minlash, tashrif buyuruvchilar oqimini tahlil qilish, chipta nazoratini avtomatlashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

“Ichan Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasining to‘rtta asosiy darvozasiga o‘rnatilgan **AI video kuzatuv tizimlari** orqali kiruvchi va chiquvchi turistlar oqimi real vaqt rejimida kuzatiladi. Sun‘iy intellekt algoritmlari yordamida tizim har bir tashrifchining harakatini tahlil qiladi, hududdagi zichlik darajasini aniqlaydi hamda tartib buzilishi yoki favqulodda holatlar yuz bergan taqdirda xavfsizlik xodimlarini ogohlantiradi.

Shu bilan birga, har bir kirish nuqtasiga **maxsus elektron turniket tizimlari** o‘rnatildi. Turniketlar BOYET raqamli chipta tizimi bilan integratsiya qilingan bo‘lib, tashrif buyuruvchilar QR-kodli chiptalar orqali muzey hududiga kirishlari mumkin. Ushbu yechim nafaqat tashriflarni tezkor va shaffof tarzda amalga oshirishni ta‘minlaydi, balki tashrifchilar soni va oqimini avtomatik ravishda hisoblab borish imkonini ham yaratadi.

### **Joriy etilgan tizimlarning asosiy imkoniyatlari:**

Tashrifchilar oqimini avtomatik tarzda hisoblash, ularning kirish-chiqish vaqtlarini qayd etish;

Darvoza oldida gavjum holatlarni aniqlash va real vaqt rejimida ogohlantirish yuborish;

G‘ayritabiiy xatti-harakatlar yoki tartib buzilish holatlarini aniqlash;

Tashlab ketilgan noma‘lum buyumlar haqida xavfsizlik xizmatini ogohlantirish;

Tashrif buyuruvchilarning harakat yo‘nalishlarini tahlil qilib, muzey infratuzilmasini optimallashtirish;

Turniket tizimi orqali chipta nazoratini avtomatlashtirish, noqonuniy kirishlarni bartaraf etish;

Onlayn sotilgan chiptalar asosida statistik ma‘lumotlarni shakllantirish.

### **Natijada quyidagi samaralarga erishildi:**

Muzey hududida xavfsizlik darajasi sezilarli darajada oshdi;

Tashrif buyuruvchilar oqimi to‘liq raqamli tarzda nazorat ostiga olindi;

Chiptalar soxtalashtirilishining oldi olindi, kirish jarayoni soddalashtirildi;

Xodimlar tomonidan nazorat va hisob-kitob ishlari avtomatlashtirildi;

Tashrif buyuruvchilarga qulay, tezkor va zamonaviy xizmat ko‘rsatish muhiti yaratildi.

Tizim orqali to‘plangan ma‘lumotlar asosida muzey faoliyati muntazam tahlil qilinmoqda. Har kuni, hafta va oy kesimida tashrif buyuruvchilar soni, eng ko‘p tashrif buyuriladigan vaqt oralig‘i, shuningdek, har bir darvoza bo‘yicha kirish statistikasi avtomatik tarzda shakllantiriladi. Ushbu ma‘lumotlar boshqaruv qarorlarini qabul qilish, tadbirlarni rejalashtirish hamda turistlar oqimini boshqarish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tizimning maxfiylik va xavfsizlik tamoyillariga qat‘iy rioya qilinmoqda. Video kuzatuv ma‘lumotlari belgilangan muddat davomida saqlanadi, shaxsiy identifikatsiya ma‘lumotlari esa anonimlashtirilgan holda qayta ishlanadi. Turniket va kamera tizimlari o‘zaro integratsiyalashgan bo‘lib, kirish-chiqish ma‘lumotlari markaziy boshqaruv serverida himoyalangan tarzda saqlanadi.

Umuman olganda, “Ichan Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasida joriy etilgan sun‘iy intellektga asoslangan video kuzatuv va turniket tizimlari muzey faoliyatini raqamli asosda boshqarish, xavfsizlikni ta‘minlash va tashrif buyuruvchilarga

zamonaviy xizmat ko'rsatish yo'lida muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tajriba kelgusida boshqa muzeylar va madaniy meros obyektlarida ham tatbiq etilishi maqsadga muvofiqdir.

### **Madaniy meros sohasida elektron xizmatlar joriy etilishi va ularning amaliy natijalari to'g'risida**

So'nggi yillarda Madaniy meros agentligi tomonidan sohada raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish yo'lida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda **my.madaniymeros.uz** yagona interaktiv portali ishga tushirildi. Ushbu platforma orqali jismoniy va yuridik shaxslar madaniy meros obyektlariga oid turli xizmatlardan **to'liq elektron shaklda** foydalanish imkoniga ega bo'ldilar.

Bundan tashqari, **my.gov.uz** davlat xizmatlari yagona portali orqali ham madaniy meros sohasiga oid **15 dan ortiq xizmat turlari** raqamlashtirilib, fuqarolarga masofadan turib ko'rsatilmoqda. Ular orasida quyidagilar mavjud:

Madaniy meros obyektlaridan **foydalanish ruxsatnomasi olish**;

**Ekspertiza arizasini** elektron tarzda topshirish;

**Ijara arizasini** onlayn yuborish;

**Restavratsiya loyihasini** taqdim etish va ekspertizadan o'tkazish;

Obyekt holati, qiymati va foydalanish shartlarini **elektron shaklda kuzatish**.

**Natijada erishilgan yutuqlar:**

**1. Sohada shaffoflik va ochiqlik ta'minlandi.** Barcha xizmatlar elektron tizim orqali ko'rsatilayotgani sababli inson omili kamaydi, korrupsiyaviy holatlarning oldi olindi. Har bir murojaat elektron tarzda qayd etiladi va jarayon to'liq kuzatiladi.

**2. Xizmatlar tezkorligi oshdi.** Avvallari hujjatlarni topshirish va ko'rib chiqish uchun fuqarolarga bir necha marotaba tashkilotlarga borish talab etilgan bo'lsa, endilikda barcha hujjatlar **onlayn shaklda** topshiriladi va ko'rib chiqish muddati qisqartirildi.

**3. Fuqarolar va tadbirkorlar uchun qulaylik yaratildi.** Endi ariza topshirish, hujjat yuklash, to'lovlarni amalga oshirish va natijani olish uchun **faqat internetga ulanilgan qurilma** kifoya qiladi. Bu ayniqsa chekka hududlardagi fuqarolar uchun katta yengillik bo'ldi.

**4. Ma'lumotlar yagona bazaga jamlandi.** Har bir madaniy meros obyektiga oid ma'lumotlar yagona elektron bazada saqlanmoqda. Bu obyektlarning holatini monitoring qilish, hisobotlar tayyorlash va tahlil ishlarini ancha osonlashtirdi.

**5. Qog'ozbozlik va ortiqcha hujjat aylanishi qisqardi.** Arizalar, loyihalar va ekspertiza xulosalari raqamli imzo orqali tasdiqlanmoqda. Bu esa hujjat aylanish jarayonini soddalashtirib, ekologik samaradorlikni ham oshirdi.

**6. Statistik va tahliliy ma'lumotlardan samarali foydalanish imkoniyati yaratildi.** Tizimda to'plangan ma'lumotlar asosida madaniy meros obyektlarining holati, foydalanish dinamikasi, restavratsiya jarayonlari va investitsiya loyihalari bo'yicha tahliliy hisobotlar shakllantirilmoqda. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim analitik asos yaratmoqda.

### **Davlat muzeylarida onlayn bilet sotish tizimini joriy etish va uning natijalari to'g'risida**

Madaniy meros agentligi tomonidan muzey sohasida raqamlashtirish

jarayonlarini kengaytirish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash hamda turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida **onlayn bilet sotish tizimi** joriy etildi. Mazkur tizim hozirda **barcha davlat muzeylarida** amaliyotga tatbiq etilgan bo'lib, "Ichan Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasida esa ushbu tizim **namunaviy tarzda** sinovdan o'tkazilib, keyinchalik boshqa muzeylarga ham bosqichma-bosqich joriy qilindi.

Onlayn chipta sotish jarayoni <https://museums.uz/> yagona platformasi orqali amalga oshiriladi. Har bir chipta **QR-kod asosida** avtomatik generatsiya qilinadi va tashrif buyuruvchilar muzeyga kirishda ushbu QR-kod yordamida o'tish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Turniket va skanerlash tizimlari orqali chipta haqiqiyliги real vaqt rejimida tekshiriladi, bu esa inson omilini kamaytirib, tartib va xavfsizlikni ta'minlaydi.

Shuningdek, **kassa va onlayn sotuvlar BOYET tizimi** orqali yagona markazda boshqarilmoqda. Tizim orqali barcha muzeylarning chipta savdolari, kirish statistikasi, tushumlar hajmi va to'lov manbalari avtomatik tarzda yig'iladi va tahlil qilinadi.

#### **Ushbu tizimning asosiy afzalliklari:**

##### **1. Moliyaviy shaffoflik ta'minlandi.**

Har bir sotilgan chipta tizimda qayd etiladi, naqd va onlayn tushumlar avtomatik tarzda hisobga olinadi. Bu esa barcha muzeylarning moliyaviy faoliyatida ochiqlik va nazoratni ta'minladi.

##### **2. Turistlar uchun qulaylik yaratildi.**

Endi tashrif buyuruvchilar chipta xaridini **oldindan onlayn tarzda**, joyidan qat'i nazar amalga oshira oladi. QR-kodli chipta yordamida kirish jarayoni tez, navbatsiz va qulay bo'ldi.

##### **3. Kassa tizimi raqamlashtirildi.**

Har bir muzeyda o'rnatilgan elektron kassalar orqali chipta sotuvlari real vaqt rejimida BOYET markaziy tizimiga uzatilmoqda. Shu bilan birga, kassa xodimlarining ishlari soddalashtirildi, hisobotlar avtomatik shaklda yaratilmoqda.

##### **4. Tashriflar statistikasini tahlil qilish imkoniyati yaratildi.**

Tizim har bir muzey bo'yicha tashrif buyuruvchilar soni, eng faol vaqt oralig'i, milliy va xorijiy turistlar ulushi haqida batafsil tahliliy ma'lumotlarni shakllantiradi. Bu ma'lumotlar boshqaruv qarorlarini qabul qilishda va marketing strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

##### **5. Soxtalashtirish va noqonuniy kirishlarning oldi olindi.**

QR-kodli chiptalar tizim tomonidan avtomatik tarzda yaratilgani sababli ularni nusxalash yoki qalbakilashtirish imkoni yo'q. Har bir chipta yagona identifikatsiya raqamiga ega.

##### **6. Integratsiyalashgan boshqaruv va hisobot tizimi yo'lga qo'yildi.**

Barcha muzeylar faoliyati yagona BOYET markaziy tizimi orqali nazorat qilinmoqda. Bu tizim moliyaviy hisobotlarni, statistik ma'lumotlarni va tashriflar tahlilini bir markazda jamlaydi.

#### **Natijalar:**

Hozirda **barcha davlat muzeylarida** onlayn chipta sotish tizimi to'liq ishga tushirilgan;

Moliyaviy hisobotlar va tushumlar markazlashgan holatda yuritilmoqda;

Turistlarga xizmat ko'rsatish sifati sezilarli darajada oshgan;

Muzeylar o'rtasida raqobatbardosh muhit shakllanib, tashriflar soni ortmoqda; Tizim orqali olingan ma'lumotlar asosida marketing va xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha strategik qarorlar ishlab chiqilmoqda.

### **IoT (Internet of Things) texnologiyasi asosida monitoring tizimi**

Madaniy meros obyektlarining saqlanish holatini **real vaqt rejimida nazorat qilish** maqsadida Buxoro viloyatidagi Amir Olimxon madrasasi, TIMI Abdullaxon, Ulug'bek madrasasi, Abdulazizxon madrasasi, Chor Minor madrasasi, Poikalon (Kalon) madrasasi, Nu'g'ay karvon saroyi, Olimjon karvon saroyi, Juybariy Kalon madrasasi, Rahmonqul madrasasi, G'oziyon madrasasi, Mirza Hamdam madrasasi, Domillo Tursinjon madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Tosh Saroy madrasasi, To'rakulboy uyi, Mir Said Kamol madrasasi, Xo'ja Kalon masjidi (Gavgushon ansambli), Ko'kaldosh madrasasi, Nodor Devon begi madrasasi, Mir Arab madrasasi, Passaj 2 binosi, Ko'kaldosh masjidi, Bolo Xovuz masjidi, Abu Hafs qabri, Zindon, Magoki-Attori masjidi, Modarixon madrasasi hamda Buxoro viloyati Madaniy meros agentligi **tarixiy yodgorlikda IoT texnologiyasiga asoslangan monitoring tizimi** joriy etildi.

Har bir yodgorlikka quyidagi **aqlli sensorlar** o'rnatildi:

**Namlik sensori** – havo va devor namligini o'lchaydi;

**Harorat sensori** – ob'jekt ichki muhitdagi issiqlikni nazorat qiladi;

**Yorug'lik sensori** – quyosh va sun'iy yorug'lik darajasini aniqlaydi;

**Vibratsiya sensori** – tebranish, silkinish va mikroharakatlarni qayd etadi;

**Xavfsizlik sensori** – har qanday g'ayrioddiy harakat yoki kirishni aniqlaydi.

Ushbu sensorlardan olingan ma'lumotlar **markaziy serverga (ERP Madaniy meros tizimiga)** uzatiladi va u yerda **sun'iy intellekt asosidagi tahlil moduli** yordamida qayta ishlanadi.

### **3. Joriy etilganidan so'ng erishilgan natijalar**

IoT tizimi ishga tushirilgach, quyidagi **amaliy natijalarga** erishildi:

Yodgorliklarning **fizik holatini real vaqt rejimida monitoring qilish** yo'lga qo'yildi;

**Namlik va haroratdagi o'zgarishlar** avtomatik qayd etilib, muammolar erta aniqlanmoqda;

**Restavratsiya xizmatlari** muammoli joylarga tezkor choralar ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi;

**Texnik xodimlarning obyektlarga chiqish soni kamaydi**, bu esa vaqt va mablag'ni tejashga olib keldi;

To'plangan ma'lumotlar asosida **tahliliy hisobotlar** tuzilmoqda, bu esa kelgusida **preventiv saqlash** strategiyalarini ishlab chiqishga yordam bermoqda.

### **4. Kutilayotgan istiqbolli natijalar (2025–2027-yillar)**

IoT monitoring tizimini **barcha viloyatlardagi 200 dan ortiq yodgorliklarda joriy etish** rejalashtirilgan;

Yig'ilgan ma'lumotlar asosida **sun'iy intellekt yordamida avariya xavfini oldindan bashoratlovchi tizim** yaratish ko'zda tutilgan;

Yodgorliklarning **mikroiqlim ma'lumotlarini GIS xaritalar bilan integratsiya qilish** rejalashtirilmoqda;

Har bir obyekt uchun **avtomatik hisobot va ogohlantirish moduli** ishlab chiqiladi.

Umuman olganda, mazkur raqamlashtirish ishlari madaniy meros sohasida **innovatsion boshqaruv tizimini shakllantirish**, xizmatlar sifatini oshirish, ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash hamda turizm salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Madaniy meros agentligi tomonidan ilmiy-ekspertiza jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etish, ularning shaffofligi va samaradorligini oshirish maqsadida keng ko'lamli raqamlashtirish ishlari amalga oshirildi. Ushbu jarayon doirasida **Ilmiy ekspert kengashi faoliyati to'liq raqamlashtirildi**.

Yaratilgan elektron tizim orqali ilmiy ekspertizaga oid barcha jarayonlar to'liq onlayn shaklga o'tkazildi. Endilikda ekspertiza uchun yuborilgan hujjatlar, loyihalar, xulosalar va qarorlar yagona elektron platforma orqali ko'rib chiqiladi hamda raqamli imzo yordamida tasdiqlanadi.

Raqamlashtirilgan tizim quyidagi qulayliklarni yaratdi:

**Jarayonlarning avtomatlashtirilishi:** Hujjatlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish, ekspertiza uchun taqsimlash va qarorlarni rasmiylashtirish jarayoni to'liq avtomatlashtirilgan.

**Yagona elektron ma'lumotlar bazasi:** Ilmiy ekspert kengashining barcha hujjatlari, xulosalari va qarorlari yagona elektron bazaga jamlanib, ularni istalgan vaqtda izlash va tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

**Masofadan turib ishlash imkoniyati:** Ekspertlar endilikda hujjatlarni onlayn ko'rib chiqib, o'z fikr va xulosalarini tizim orqali kiritish imkoniyatiga ega.

**Shaffoflik va tezkorlik:** Jarayonlarning raqamlashtirilishi inson omilini kamaytirib, qaror qabul qilish jarayonini ochiq va tezkor holatga keltirdi.

**Integratsiya imkoniyati:** Tizim Madaniy meros agentligining boshqa axborot tizimlari, jumladan ERP va GIS platformalari bilan bog'langan bo'lib, bu obyektlarga oid ilmiy ma'lumotlarni yagona raqamli muhitda boshqarish imkonini berdi.

Ilmiy ekspert kengashining raqamlashtirilgan faoliyati natijasida ilmiy ekspertiza jarayonlari tezlashdi, hujjatlar aylanishi soddalashdi, ma'lumotlar ishonchliligi va xavfsizligi ta'minlandi. Kengash faoliyatida byurokratik to'siqlar bartaraf etilib, mutaxassislarining masofaviy ishtiroki orqali samaradorlik sezilarli darajada oshdi.

Yaqin kelajakda tizimni yanada takomillashtirish, sun'iy intellekt asosida avtomatik tahlil va tavsiya modullarini joriy etish, shuningdek, xalqaro ekspertlarni onlayn tarzda jalb etish imkoniyatlarini yaratish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, barcha ma'lumotlarni yagona milliy raqamli arxiv bilan to'liq integratsiya qilish ishlari bosqichma-bosqich davom ettiriladi.

Madaniy meros agentligi tomonidan mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish, ularning fondlarida saqlanayotgan noyob eksponatlar va tarixiy ashyolarni asrab-avaylash maqsadida keng qamrovli **raqamlashtirish ishlari** amalga oshirildi.

Bugungi kunga kelib, **muzeylarning jami 2 milliondan ortiq ashyolarining raqamli ko'inishi shakllantirildi**. Ushbu jarayon doirasida har bir eksponat yuqori aniqlikdagi suratlar, tavsifiy ma'lumotlar, tarixiy izohlar va identifikatsiya raqamlari bilan yagona elektron bazaga joylashtirildi.

## **X. Xulosalar**

Agentlik va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi va chora-tadbirlar dasturida belgilangan ishlar doimiy ravishda bajarilib kelinmoqda va ularning bajarilishi nazorat qilinmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvar kunidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli qaroriga asosan Agentlik tizimida tegishli ishlar olib borilmoqda.

## **XI. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi**

Joriy yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, mazkur yo'nalishda qabul qilingan Davlat dasturlari va boshqa dasturlarning samarali ijro etilishini ta'minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi rejalashtirildi. Bunda asosiy e'tibor:

xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

agentlik va uning tarkibidagi tuzilmalar faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash;

ochiq ma'lumotlar sifatida rasmiy sahifalarda joylashtirilishi lozim bo'lgan ahamiyatga molik ma'lumotlarni o'z vaqtida belgilangan ro'yxat asosida joylashtirilishini nazorat qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan, korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini qonuniy ko'rib chiqib, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralari ko'rish.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha ishlarni to'laqonli va sifatli bajarish hisobot yili yakuniga ko'ra agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi baholash ko'rsatkichlarining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.